



**TIBBIY TA'LIM JARAYONIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA "PRESENT  
PRACTICE PRODUCE" (PPP) METODIDAN FOYDALANISHNING  
USTUVORLIKLARI.**

**Raximidinova Gulbodom**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi O'zbek va xorijiy tillar kafedrası*

*Ingliz tili o'qituvchisi [gulbadamtoirova@gmail.com](mailto:gulbadamtoirova@gmail.com)*

**Annatsiya:** *Ushbu maqolada tibbiyot oliygohlarida "present practice produce" metodi orqali ingliz tili o'qitilganda ularda tinglash qobiliyati, o'z o'zini baholash, kontekstual o'rganish va shu kabi bir necha qo'shimcha ko'nikmalarni shakllantirishi ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tibbiy atamalar, ppp metodi, interaktivlik, kontekstual o'rganish.*

**Аннотация:** *В данной статье раскрывается формирование навыков слушания, самооценки, контекстного обучения и других дополнительных навыков при преподавании английского языка в медицинских вузах по методу «произведение настоящей практики».*

**Ключевые слова:** *медицинские термины, метод PPP, интерактивность, контекстное обучение.*

**Kirish.** Bugun hayotimizning har bir jabhasini axborot texnologiyalari qamrab olayotgan bir paytda, yoshlarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning ilm olishga, xorijiy tillarni o'rganishga rag'batlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Muhtaram Yurtboshimizning 2021-yil 19-mayda "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 5117-son Qarorlari asosida ta'lim sohasida bir qancha o'zgarishlar kiritildi. Ayniqsa Tibbiyot oliygohlarida xorijiy tillarni o'qitishda turli xil interaktiv metodlar, zamonaviy o'qitish qurilmalari, va video darsliklar orqali dars jarayonlari zamonaviy tarzda boyitilib borilmoqda. Bulardan biri Tibbiyotda ingliz tilini "present practice produce" (PPP) metodi orqali o'qitishning bir qancha afzalliklari mavjud.

**Asosiy qism.** Ushbu metodni qo'llash talabalarga nafaqat til o'rganish, balki ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham yordam beradi. Bu metod asosan, yangi tilni o'rganishda samarali yondashuv sifatida tanilgan. Tibbiyot sohasida bu metodning afzalliklari quyidagilar:

- Tushunishni oshirish: PPP metodi orqali talabalarga yangi terminlar va tushunchalarni taqdim etish, ularni amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Bu esa tibbiyotdagi murakkab atamalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Amaliy mashg'ulotlar: Ushbu metodda "practice" bosqichida talabalar olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning tibbiy muolajalar yoki bemorlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- O'z-o'zini baholash: Talabalar o'z bilimlarini va ko'nikmalarini "produce" bosqichida baholay olishadi, bu esa ularga o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.
- Kontekstual o'rganish: PPP metodi kontekstli ta'limni rag'batlantiradi, ya'ni talabalar tibbiyot sohasidagi haqiqiy vaziyatlarda ingliz tilini qo'llashga tayyorlanadilar.
- Motivatsiya: Tibbiyot sohasidagi muhim va qiziqarli mavzular bilan bog'liq materiallardan foydalanish orqali talabalarni qiziqishlarini yanada rag'batlantirish mumkin. Tibbiyotda ingliz tilining ahamiyati haqida tushuncha berish ularga yanada qiziqarli bo'ladi.
- Interaktivlik: PPP metodi interaktiv darslarni o'tkazishga imkon beradi, bu esa talabalar orasidagi hamkorlikni kuchaytiradi va tajriba almashinuviga olib keladi.
- Ko'p qirrali yondashuv: Talabalar turli xil usullar va materiallar yordamida o'rganadilar (mavzuli darslar, rolli o'yinlar, simulyatsiyalar), bu esa ularning ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvni ta'minlaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, PPP metodi ingliz tilini o'qitishda samarali va tartibli yondashuv bo'lib talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga kata hissa qo'shadi. Ushbu afzalliklar tibbiyotda ingliz tilini o'rganishni yanada mazmunli qiladi, shuningdek, kelajakdagi o'z mutahassisliklari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brumfit, C. J. (1984). Communicative methodology in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). Approaches and methods in language teaching (2<sup>nd</sup> ed.). Cambridge, England : Cambridge University Press.
3. Valieva, N. (2021). The 'Gadla Lālibalā collection of textual units': tradition and documentation (Doctoral dissertation, Staats-und Universitätsbibliothek Hamburg Carl von Ossietzky).
4. Валиева, Н. А. (2020). Философия религии, ее особенности и роль в обществе. Ученый XXI века, (1 (60)), 15-19.
5. Валиева, Н. А. (2023). 1917 ЙИЛ ФЕВРАЛЬ-ОКТЯБРЬ ОРАЛИФИДА ТУРКИСТОН. GOLDEN BRAIN, 1(30), 208-214.
6. Валиева, Н. (2023). ТУРКИСТОНДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИДА. Talqin va tadqiqotlar, 1(19).
7. Abdumajitovna, V. N. (2023). RUSSIAN COLONIAL POLICY IN TURKESTAN- ESTABLISHMENT OF A CENTRALIZED ADMINISTRATIVE SYSTEM. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12(01), 54-57.